



**O'ZBEKISTON QAHRAMONI SUYIMA G'ANIYEVA
XOTIRASIGA BAG'ISHLANGAN AN'ANAVIY
«NAVOIYSHUNOSLAR»
V ILMIY-AMALIY ANJUMANI
MAQOLALAR TO'PLAMI**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI ABU RAYHON BERUNIY
NOMIDAGI SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

O‘ZBEKISTON QAHRAMONI SUYIMA G‘ANIYEVA XOTIRASIGA
BAG‘ISHLANGAN AN‘ANAVIY «YOSH NAVOIYSHUNOSLAR» ILMIY-
AMALIY ANJUMANI MAQOLALAR TO‘PLAMI

V

Toshkent – 2025

«Yosh navoiyshunoslar»: maqolalar to‘plami. Mas’ul muharrir
G.Rixsiyeva, – Toshkent: TDSu, 2025. – 155 b.

Ushbu to‘plamda 2024-yil Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida tashkillashtirilgan «Yosh navoiyshunoslar» mavzuidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani maqolalari jamlangan. To‘plamda Alisher Navoiy adabiy-ilmiy merosining mumtoz adabiyotimizdagi o‘rni va bugungi ahamiyati: shoir ijodiga bog‘liq holda matnshunoslik masalalari, tilshunoslik va adabiyotshunoslik, shuningdek, Navoiy asarlarini o‘qitish muammolari haqida so‘z yuritiladi. Kitob yetishib kelayotgan yosh navoiyshunoslarning bugungi holati va istiqboli borasida muayyan tasavvurni o‘zida jamlagani bilan ahamiyatga ega. To‘plam filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistr va bakalavrlar hamda keng o‘quvchilar ommasiga mo‘ljallangan.

Mualliflar qarashlari va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtai nazaridan farq qilishi mumkin.

Mas’ul muharrir:

Gulchehra Rixsiyeva, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti rektori
filologiya fanlari nomzodi, professor

Tahrir hay‘ati:

Abdumajid Madraimov, filologiya fanlari doktori, professor
To‘xliyev Boqijon, filologiya fanlari doktori, professor
Qudratulla Omonov, filologiya fanlari doktori, professor
Rixsitilla Alimuxamedov, filologiya fanlari doktori, dotsent
Maryam Ishmuhamedova, filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Ozoda Tojiboyeva, filologiya fanlari bo‘yicha PhD, dotsent
Oysara Madaliyeva, filologiya fanlari bo‘yicha PhD, katta ilmiy xodim

Taqrizchilar:

Qosimjon Sodiqov, filologiya fanlari doktori, professor
Aftondil Erkinov, filologiya fanlari doktori, dotsent

Nashrga tayyorlovchi:

Oysara Madaliyeva, filologiya fanlari bo‘yicha PhD, katta ilmiy xodim

ALISHER NAVOIY G'AZALLARI ILK NASHRLARDA

Dunyodagi hech bir adibning asarlari Alisher Navoiyning ijodiy merosichalik keng tarqalmagani olimlar tomonidan doimo e'tirof etiladi. Bugungi texnika asrida xalqaro maydondagi navoiyshunoslik ilmining borishi, Alisher Navoiy asarlari manbalarini o'rganish, xorij olimlarining bu boradagi faoliyatlarini o'rganish imkoniyatini kengaytirdi. Xorijda Alisher Navoiy ijodini o'rganish dastlabki paytlarda manbashunoslik faoliyatidan boshlangan. Sababi turkiy xalqlar adabiyotining cho'qqisi bo'lgan, temuriylar davri uyg'onish davri rivojida yetakchilik qilgan Alisher Navoiy asarlari manbalari doimo e'tiborda turgan. Navoiy asarlari qo'lyozma manbalarining o'sha kutubxona yoki fondlarda bo'lishi katta ahamiyat kasb etgan. Shu ma'noda O'rta Osiyoga sayohat qilgan olimlar turkiy tilli xalqning madaniyatini o'rganish asnosida Navoiy, Bobur ijodini o'rganishgan va o'zi mansub xalq ilm-faniga olib o'tganlar. Natijada, ularning ko'p qirrali faoliyati ortidan ilk bora Alisher Navoiyning asarlari xorij nashrlarida e'lon qilinib borilgan. Bu bugun o'z navbatida adib asarlarining o'rganilish tarixiga salmoqli hissa bo'lib qo'shiladi.

Alisher Navoiy asarlarining ilk nashrlari borasida o'zbek kitobxoni manbashunos, bibliograf, etnograf, tarixchi olim Aleksandr Aleksandrovich Semyonovning 1940-yilda e'lon qilingan "Материалы к библиографическому указателю печатных произведений Алишера Навои и литературы о нем" (Alisher Navoiy asarlari va u haqidagi adabiyotlar bibliografik ko'rsatkichiga doir manbalar) nomli tavsifiy xarakterdagi kitobi orqali ma'lumotga ega bo'lganlar (5). Kitob Alisher Navoiy tavalludining 500 yilligi arafasida tayyorlangan bo'lib, unda Navoiy asarlarining Toshkent, Xiva, Buxoro, Istanbul toshbosma matbaalaridagi nashrlari tavsiflangan. Shuningdek, undan xorijdagi ilk navoiyshunoslik haqida ham ma'lumot olish mumkin. G'arblik sharqshunoslarning ishlarida Navoiyning qaysi asaridan parcha olingani, tarjima qilingani haqida aniq ma'lumotlar qayd etilgan. Shu ma'noda mazur kitob O'zbekistonda turib nashr etilgan va ilm-fan ahliga xalqaro navoiyshunoslik tarixi haqida ma'lumot beruvchi dastlabki ish sifatida qadrlidir.

Alisher Navoiy asarlarini ilk bora xorijda nashr qilgan va tarjima qilib, izohlagan olimlardan biri Herman Vamberidir. Asli vengriyalik sayyoh, tarixchi olim Herman Vamberi (1832–1913) lotin, ingliz, nemis, fransuz, rus tillarini bilgan. Usmonli turk madaniyatiga qiziqishi ortidan 20 yoshida Turkiyaga ko'chib o'tadi, saroyda ishlaydi. Turk tarixchilarining asarlari tarjimalari tufayli Vengriya Fanlar akademiyasiga muxbir a'zosi bo'lib saylanadi. Vamberi Turkiyadan Markaziy Osiyo bo'ylab safar qiladi, Xiva, Buxoro, Samarqand, Qarshi, so'ngra Hirot, Mashhad orqali Turkiya,

so'ng Yevropaga qaytadi (1861-64). U safari davomida Markaziy Osiyo tarixiga doir kuzatishlarini qayd qilib boradi va maxsus tadqiqotlar yozgan. Vamberi turk tili orqali o'zbek tilini o'rganadi. Xalq og'zaki ijodi va o'zbek adiblari ijodini o'rganish ortidan Alisher Navoiy asarlariga ham katta qiziqish bildiradi. Vamberi sayohatlar davomida Navoiy asarlarini nemis tiliga tarjima qilib, o'zi tuzgan "Chig'atoy tilidan qo'llanma" xrestomatiyasiga kiritadi. Alisher Navoiy asarlari uchun tuzilgan lug'at – "Abushqa"ni 1862-yilda qisqartirilgan holda tarjimasi bilan nashr qilgan. "O'rta Osiyo ocherklari" kitobida Alisher Navoiyning she'riyat, tarix, mantiq, adab ilmiga doir 32 ta asar yozib qoldirganini aytib o'tadi.

Olimning "Chig'atoy tilidan qo'llanma" kitobi ayni muhim xrestomatiyalardan biri hisoblanadi. Kitob ilk bora yevropaliklar uchun turkologiya darslarida yoxud turkiy til va adabiyotni o'rganuvchi o'quvchilar uchun qo'llanma sifatida tayyorlangan. Kitobda turkiy xalqlar folkloriga oid 30 dan ortiq asar haqida ma'lumot berilgan, xususan, Navoiy, Fuzuliy, Nasimiy, So'fi Olloyor g'azallaridan namunalar keltiradi.

Kitobda Navoiyning bir qancha asarlaridan parcha berilgan. Jumladan, "Mahbub ul-qulub", "Farhod va Shirin" dostonidan parchalar kiritilgan. Shu o'rinda Majlisiyning "Qissai Sayfulmuluk" asarini ham Alisher Navoiy asari deya xato ko'rsatib o'tadi. Shunday xato ilk bora rus olimi Y.Berezin xrestomatiyasida ham uchraydi. Berezin Haydar Xorazmiy asarini Navoiy asari deb, matndan parcha beradi. Vamberi xalq og'zaki ijodiga ko'proq e'tibor bergan, ya'ni boshqa bir davlatdan keluvchi xorijlik sifatida yerli xalqning madaniyati, urf-odati, og'zaki ijod namunalarini ham o'rganadi. Xalq maqollarini nemis tilida tarjima qilib, nashr qilgan. Shu ma'noda xalqona uslubda yaratilgan "Qissai Sayfulmuluk" muallifini belgilashda yanglishgan bo'lishi mumkin. Kitob davomidan Navoiy asarlari uchun tuzilgan "Abushqa" va "Badoye al-lug'at" haqida batafsil ma'lumot beradi, kitob oxiridagi lug'atlarda Navoiy asarlarida uchraydigan so'zlarning mazmunini ham izohlaydi.

"Mahbub ul-qulub" asaridan parchalar 173-sahifadan to 177-sahifasigacha o'rin olgan (4). Asardan parcha aynan hamddan emas, Alisher Navoiyning o'z taxallusi bilan salovot, durudlar aytib asarni yozishni boshlagani bitilgan joyidan boshlanadi: "Ammo ba'd: fuqaroning gadoyi va g'aroib masturalarining chehrakushoni al-faqir ul-haqir Alisher al-mulaqqab bin-Navoiy (g'affara zunubihi va sattara ayyubihi) mundoq arz qilur va adosin o'ziga farz bilurkim, bu xoksori parishon ro'zgor shabob avonining bidoyatidin kuhulat zamonining nihoyatig'acha davron voqeotidin va sipehri gardon hodisotidin va dahri fitnangiz buqalamunlug'idin va zamonai rangomiz gunogunlig'idin muddati madid va ahdi baid har nav' shiq va suratda aqdom urdum va har tavr suluk va kisvatda yugurdum va o'zumni yaxshi-yamon xizmat va suhbatig'a yetkurdim. Goh mazallat va ano vayronida shevan ko'rguzdum va goh izzat g'ino bo'stonida anjuman tuzdum" (Matn "Mahbub ul-qulub"ning o'zbek tilidagi joriy nashridan olindi) (3, 2-3).

Davomidan *“Gahe topdim falakdin notavonlig‘, Gohe ko‘rdim zamondin komronlig‘, Base issig‘, sovug‘ ko‘rdo‘m zamonda, Base achchig‘, chuchuk tottim jahonda”*, mazmunidagi she‘rdan so‘ng keluvchi Navoiyning dunyoga kelib ko‘rgan-kechirganlari, olam haqidagi fikrlari, xulosalari bizningcha olim tomonidan maqsadli tanlab olingan. Keyingi parchalar ham asarning kirish qismidagi muallif fikrlaridan olingan. Asarning turli tabaqalar xususiyatlari, pand-nasihatlar, tanbehlar qismidan parcha olinmagan. Bu o‘rinda muallif asardagi kirish vazifasini bajargan muallif so‘zlari bilan cheklangan. Sababi, mazkur ma‘lumotlar Navoiy ijodi bilan ilk bora tanishayotgan xorijlik kitobxon uchun shoir shaxsiyati, o‘y-fikrlari, dunyoqarashi haqida ham ma‘lumot beradi. Shu ma‘noda olim ularni ongli tanlab olgan deyish mumkin.

Albatta, matn qiyoslansa, ayrim xatolar ko‘zga tashlanadi. Biroq xrestomatiya qat‘iy prinsip assida tuzilgan: dastlab asardan parcha eski o‘zbek yozuvida yozilgan, keyin nemis tilida tarjimasini berilgan, pastda qiyin so‘zlar izohlangan. Har ikki ishni ham olimning o‘zi bajargan, ya‘ni nasriy bayon va izohlar olimga tegishli. Berezin tuzgan *“Turkiy xrestomatiya”*da faqat eski o‘zbek yozuvidagi matn berilgan, rus tilidagi tarjimasini keltirilmagan. Faqat sahifa ostidagi izohda qiyin so‘zlar yoki qo‘lyozmalardagi farqli so‘zlar ko‘rsatib o‘tilgan.

“Chig‘atoy tilidan qo‘llanma” xrestomatiyasida navbati bilan Alisher Navoiyning *“Ey ko‘ngul, kelkim, ikov bo‘lub nigore ko‘zlali, / Sarv qadde istabon siymin uzore ko‘zlali”*, *“Ey, hamd o‘lub mahol fasohat bila sanga, / Andoqki, qurbi taqvovu toat bila sanga”*, *“Yordin ayru ko‘ngul mulkedurur sultoni yo‘q, / Mulkkim sultoni yo‘q, jismedururkim, joni yo‘q”* matlasi bilan boshlanuvchi g‘azallar o‘rin olgan (173-187-betlar). Tartibi bilan har bir g‘azalning misrama misra nasriy bayoni berilgan, ya‘ni nemis tilida g‘azalning mazmuni nasrda tiklangan.

Birinchi keltirilgan g‘azal *“G‘aroyib us-sig‘ar”* devonidagi 603-g‘azal. G‘azalda ayrim so‘zlarda xatolik ko‘zga tashlanadi, xususan, *“Bizda ham ko‘z bor, borib bir yerda yori ko‘zlali”* misrasida yerda – o‘zga, *“Chun g‘ubori markabidin ravshan aylar el ko‘zin”* misrasidagi markabidin – markidin, *“Gar aningdek sho‘x shahroshub ofat topmasak”*dagi aningdek – saningdek, *“Garchi nopaydo erur maqsud, armon qolmasun”* misrasida – nopaydo – foyda tarzida yozilgan. Maqtaning birinchi baytidagi bular so‘z tushib qolgan. Besh va to‘rtinchi baytlar o‘rni almashgan. Albatta, tili turkiy bo‘lmagan bir sayyoh, tarixchining bunday xatolarga yo‘l qo‘yishi tabiiy. Keyin asl manba bilan tiklanmasa, o‘zgarishlarda katta ma‘no buzilishi yo‘q. Faqat markabidin so‘zining o‘rniga qo‘llangan markidin so‘zining ma‘nosi anglashilarsiz.

“Ey, hamd o‘lub mahol fasohat bila sanga” deb boshlanuvchi g‘azal Vamberi tarjimasida 8 bayt. *“Badoye ul-bidoya”*, *“G‘aroyib us-sig‘ar”*da g‘azal 9 baytdan iborat. Matndan *“Izhorij ajz bizdin adab tarkidur, base / Yuz ming qusuru nuqsu*

kasofat bilan sanga” misrasi tushib qolgan. Maqtadan oldingi ikki baytning o’rni almashgan.

“Yordin ayru ko’ngul mulkedurur sultoni yo’q” g’azali 6 baytdan iborat. Ushbu g’azal Navoiyning “Badoye ul-bidoya” devonida, “G’aroyib us-sig’ar”da ham 7 baytdan iborat. Biroq Vamberi ushbu g’azalning 6 baytini bergan. G’azal matnlarini qiyosiy solishtirganda “Do’zaxekim, ravzayi rizvondin o’lg’ay noumid, / Bir xumoredurki, anda mastliq imkoni yo’q” misrasi tushib qolgani ko’zga tashlanadi. Olimni mazkur misradan oldin kelgan “Do’zaxedurkim, yonida ravzayi rizvoni yo’q” kabi qaytariq misra chalg’itgan yoki olim ko’chirgan manbada shu tarzda berilgan. Har holda olim eski o’zbek yozuvida imkon qadar g’azallarni xatosiz va chiroyli husnixatda berishga harakat qilgan. Ko’rinadiki, olim o’zida mavjud devon nusxalaridan foydalangan. Ularni Rossiyada nashrga tayyorlagan rus olimi Berezin singari boshqa qo’lyozmalar bilan qiyoslab ko’rish imkoni bo’lmagan ko’rinadi. Aks holda qo’lyozmalardagi farqlarni qayd etgan bo’lardi.

G’azallardan so’ng esa “Farhod va Shirin” dostonidan parcha beriladi (4, 180-187). Dastlab eski o’zbek yozuvidagi parcha keyin esa nemis tilidagi tarjimai keltiriladi. Dostonning avvalgi boblari tarjima qilingan bo’lib, “Muhandiskim bir qasr obod qildi, / Ki chun xoqong’a ul kom o’ldi hosil” misrasi bilan boshlanadi.

Umuman olganda, mazkur asarlar navoiyshunoslik tarixida katta ahamiyatga ega. Navoiy ijodi bilan ilk bora Yevropada aynana ushbu kitoblar orqali tanishganlar. Mazkur olimlar Navoiy ijodini katta qiziqish va mehr bilan o’qigan, Navoiy shaxsiyatini ulug’lagan. Alisher Navoiy ijodidan har bir davr olimi o’zi xohlagan asarlarni, aksariyat hollarda temuriylar davri haqida ma’lumot beruvchi “Majolis un-nafois”ni tanlab olishganini ko’rish mumkin. Bugun mazkur manbalarni to’liq o’rganish navoiyshunoslik tarixining ma’lum bir vazifalaridan sanaladi. Har bir olimning navoiyshunoslik faoliyati yoritilib, fan rivojiga qo’shgan hissasi e’tirof etilishi ham ayni muddao.

Umuman, olim O’rta Osiyoni o’z ko’zi bilan ko’rgan, o’rgangan, Vengriyada turkshunoslikka asos solgan, darsliklar yozgan, turkigo’y adiblar ijodini, xususan, Alisher Navoiy asarlarini nemis tilli kitobxonga tanishtirgan olimdir. Navoiyshunoslik tarixida mazkur manbalar o’z davrida kerakli qo’llanma bo’lib xizmat qilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. 1-жилд: Бадойиъ ул-бидоя. – Т.: Фан, 1987.
2. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. 14-жилд: Махбуб ул-қулуб. Муншаот. Вақфия. – Т.: Фан, 1998.
3. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. 3-жилд: Хазойин ул-маоний: Фаройиб ус-сиғар. – Т.: Фан, 1988.

4. Herman Vamberi. Cagataische Sprachstudien enthaltend grammatikalischen Umriss, Chrestomathie und Worterburch der Cagataischen Sprache, Leipzig, 1867. – 359 p.

5. Семенов А. А. Материалы к библиографическому указателю печатных произведений Алишера Навои и литературы о нем. – Ташкент, 1940.

MUNDARIJA

NAVOIYSHUNOSLAR TADQIQOTLARI

МАДРАИМОВ Абдумажид. Алишер Навоий асарларининг мўътабар қўлёзмаларига ишланган нафис мўъжаз расмлар: соҳага оид тадқиқотлар хусусида	3
ЭРКИНОВ Афтондил. Алишер Навоий: ҳаёти ва ижоди, навоийшуносликка оид тадқиқотларга назар	6
РАЖАБОВА Буробия. Навоий қўллаган сўз ва тасвирли ифода хусусида	38
ТОҶИБОҒҒЕВА Ozoda. Alisher Navoiy gʻazallari ilk nashrlarda	49
ҲАЗРАТҚУЛОВА Эльмира. Михаил Никитскийнинг Навоий даври адабий муҳитига доир қайдлари.....	54
YORQIN Shafiqa, UMAROVA Sohiba. Alisher Navoiy adabiy davrasi va ijod manbasini oʻrganish tamoyillari.....	67
QORAYEV Sherxon. Temuriy shahzoda Muhammad Sulton va Alisher Navoiy	71
ЮЛДАШЕВ Нурилло. Методика стихотворного изложения тем фикха в произведениях Алишера Наваи на примере «Сирадж ал-муслимин	79
KARIMOVA Yulduz. Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostonida badiiy nutq poetikasi.....	85

YOSH NAVOIYSHUNOSLAR TADQIQOTLARI

XOLMATOVA Guliraʼno. “Munshaot” maktublarida sheʼriy shakllarning berilishi: qitʼalar misolida.....	91
QUCHQOROVA Charos. “Hayrat ul-abror”da siyrat boyligi va suvrat masalalari	95
FAYZULLAYEVA Sevara. Avaz Oʻtarning “faloni” turkum qitʼalarida Navoiyga izdoshlik.....	99
TOJIYEV Dostonjon, TOSHQULOVA Shahnoza. “Turkiston Rossiya va Xitoy oraligʻida” kitobi Alisher Navoiy haqida muhim manba sifatida	103
БОБОҚУЛОВА Шоҳиста. Лутфий шеърят тилидан ҳозирги ўзбек тилигача сақланиб қолган сўзлар.....	108

ҚУРБОНОВ Абдумалик. Туркия навоийшунослигига оид Ўзбекистон тадқиқотлари	116
ALLANAZAROVA Kamola. Tazkiralarda an'ana va o'ziga xoslik (“Lubobu-l-albob” va Majolis un-nafois” tazkiralari misolida)	120
JURAKULOVA Hulkar. Bir etnografik odat va uning “Xamsa”dagi talqini	126
SHUKRULLAYEVA Malika. Alisher Navoiy asarlarida ishlatilgan tilshunoslik atamaları tahlili.....	129
KENTAYEVA Gulmira. O'zbek adabiyoti tarixida she'riy qissachilik Xolis va shamsiddin O'zgandiy she'riy qissalari tahlili.....	133
МУСАБОВЕВ Комрон. Туркий “Назми ақоид” асарининг ўрганилиш тарихи....	144
SHAVKATOVA Shukrona. Abdulla Nosirovning "Navoiyga oid manbalar" daftari	147
AHMADJONOV Ibrohimjon. “Ma'dani inson gavhari...”	150